

UDK: 37.01:004.738.5

CREATING PEDAGOGICAL CONDITIONS AND ENVIRONMENT FOR DEVELOPING STUDENTS INTERNET LITERACY

Moxira Dedaxonova

Namangan Davlat Universiteti doktoranti.

Tel: 93 678 50 02, e-mail: dedaxonovamoxira@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, prof. Raxmatova X. taqrizi asosida

Abstract. *This article explores the concept of internet literacy, its significance in modern education, and methods for developing this competence in students. The author highlights the pedagogical opportunities and necessary conditions for effective and safe internet use in educational institutions, fostering critical thinking, and forming digital culture. Furthermore, advanced pedagogical approaches related to the topic are also examined.*

Keywords: *Internet literacy, digital culture, pedagogical conditions, internet safety, information literacy, modern education.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ И СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ИНТЕРНЕТ-ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Абстрактный. *В данной статье рассматривается сущность понятия интернет-грамотности, её значение в современном образовательном процессе и пути формирования данной компетенции у учащихся. Автор освещает педагогические возможности и условия, необходимые для эффективного и безопасного использования интернета в образовательных учреждениях, развития критического мышления и формирования цифровой культуры. Также рассматриваются передовые педагогические подходы по данной тематике.*

Ключевые слова: *Интернет-грамотность, цифровая культура, педагогические условия, безопасность в интернете, информационная грамотность, современное образование.*

O'QUVCHILARNING INTERNET SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALITILGAN PEDAGOGIK IMKONIYATLAR VA MUHITNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada internet savodxonligi tushunchasining mohiyati, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ahamiyati va o'quvchilarda ushbu kompetensiyani shakllantirish yo'llari tahlil qilingan. Maqolada ta'lim muassasalarida internetdan samarali va xavfsiz foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda raqamli madaniyatni shakllantirish uchun zarur bo'lgan pedagogik imkoniyatlar va shart-sharoitlarni yoritilgan. Shuningdek, mavzuga oid ilg'or pedagogik yondashuvlar ham ko'rib chiqilgan.*

Kalit soʻzlar: *internet savodxonligi, raqamli madaniyat, pedagogik shart-sharoit, internet xavfsizligi, axborot savodxonligi, zamonaviy taʼlim.*

KIRISH


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez surʼatlar bilan rivojlanishi taʼlim tizimida yangi yondashuvlarni joriy qilishni talab etmoqda. Bugungi kunda oʻquvchilarning internetdan toʻgʻri va samarali foydalanish koʻnikmasini rivojlantirish – ularning raqamli savodxonligi darajasini oshirish bilan chambarchas bogʻliq. Internet savodxonligi zamonaviy jamiyatda shaxsning axborot bilan ishlash, tahlil qilish, tanqidiy yondashish, xavfsizlikni taʼminlash hamda raqamli muhitda axloqiy meʼyorlarga amal qilish qobiliyatlarini oʻz ichiga oladi. Shunday ekan, maktabda internet savodxonligini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Internet savodxonligi bu shaxsning internet tarmogʻidagi axborotni topish, tahlil qilish, baholash va undan toʻgʻri foydalanish, shuningdek, raqamli muhitda oʻzini axloqiy va xavfsiz tutish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- Axborot savodxonligi – ishonchli va kerakli maʼlumotni tanlab olish;
- Texnologik savodxonlik – AKT vositalaridan foydalanish koʻnikmalari;
- Raqamli axloq – internet madaniyati, shaxsiy masʼuliyat va boshqalarning huquqlariga hurmat;
- Internet xavfsizligi – shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish, xavfli kontentni tanib olish.

Oʻquvchilarda internet savodxonligini rivojlantirish uchun pedagoglar tomonidan quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim:



- Innovatsion o'qitish uslublari: interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar.
- Raqamli vositalardan foydalanish: elektron darsliklar, onlayn platformalar, ta'limiy dasturlardan foydalanish.
- Maxsus mashg'ulotlar tashkil etish: internet xavfsizligi, axborotga tanqidiy yondashuv, onlayn madaniyatga oid treninglar.
- Ota-onalar bilan hamkorlik: raqamli xavfsizlik bo'yicha maslahatlar, uy sharoitida nazorat va qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligini anglaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'quvchilarning internet savodxonligini shakllantirish – bu XXI asrda ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar va internetning hayotimizning barcha sohalariga kirib borishi bilan, o'quvchilarga zamonaviy raqamli vositalardan samarali va mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini berish zaruriyati paydo bo'ldi. Internet savodxonligi faqatgina texnologiyalardan qanday foydalanishni o'rganish emas, balki o'quvchilarga axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, turli manbalardan ma'lumot olish va axborotni mas'uliyatli tarzda tarqatish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishni anglatadi. [3]. Bu jarayon o'quvchilarga raqamli

davrda ongli va mustaqil ishtirokchilarga aylanishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilarning internet savodxonligini shakllantirishda innovatsion pedagogik metodlar va zamonaviy texnologiyalarning roli katta. O'quv jarayonida interaktiv texnologiyalarni qo'llash, masalan, ta'lim dasturlari, onlayn kurslar, multimediya vositalari va raqamli resurslar orqali o'quvchilarning qiziqishini oshirish va bilim olish jarayonini yanada samarali qilish mumkin. [4]. Konstruktiv yondashuv, kooperativ o'qitish, muammoli o'qitish kabi metodlar, o'quvchilarni faollashtirib, ularning mustaqil fikrlashini, axborotlarni tahlil qilishni va qarorlar qabul qilishni o'rgatadi.

Bundan tashqari, onlayn o'qitish va raqamli platformalar orqali o'quvchilarni o'z vaqtida, masofaviy ravishda ta'lim olish imkoniyati bilan ta'minlash ham internet savodxonligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Raqamli vositalardan foydalanish, o'quvchilarga o'zgaruvchan dunyoda tezkor va samarali qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik – o'quvchilarning internet savodxonligini shakllantirishda muhim omildir. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha tomonlarning o'zaro aloqasi va hamkorligi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchilar o'z darslarida internet va raqamli vositalardan foydalanishni o'quvchilarga o'rgatish bilan birga, ota-onalarni ham bu jarayonga jalb etishlari kerak. Ota-onalar o'z farzandlarini internetda qanday faoliyat yuritayotganini kuzatib borishlari, ularni raqamli xavfsizlik va etikaga o'rgatishlari zarur. [5].

Shuningdek, ota-onalar bilan o'qituvchilar o'rtasida o'quvchilarning internet faoliyatini muhokama qilish va o'quvchilarga to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda xavf-xatarlar haqida ma'lumot berish muhim. Bu o'zaro aloqalar o'quvchilarning internetdan samarali foydalanishiga yordam beradi va ularning raqamli savodxonligini yuqori darajaga ko'taradi. Shu bilan birgalikda internet savodxonligini shakllantirishda barqaror pedagogik muhitni yaratish juda muhim. Bu esa faqatgina zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritish bilan cheklanmaydi. [6]. Barqaror muhitni yaratish uchun o'quvchi va o'qituvchilar

o'rtasida ishonchli aloqalar, to'g'ri rejalashtirilgan o'quv dasturlari, shuningdek, o'quvchilarning ehtiyojlariga mos keladigan o'quv resurslari taqdim etilishi kerak. Shu bilan birga, o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini o'rganishga rag'batlantirish uchun doimiy tahlil va refleksiya jarayonlarini tashkil etish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'quvchilarning internet savodxonligini shakllantirish bugungi kunda nafaqat ta'lim muassasalarida, balki jamiyatning har bir a'zosida mas'uliyatli raqamli ishtirokchilarni tarbiyalashning eng muhim omillaridan biridir. Innovatsion pedagogik metodlar, zamonaviy texnologiyalar, va ijtimoiy hamkorlik asosida barqaror pedagogik muhitni yaratish, o'quvchilarga o'z vaqtida, samarali va ongli internetda faoliyat yuritish ko'nikmalarini beradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa barcha ta'lim ishtirokchilarining (pedagoglar, o'quvchilar, ota-onalar) o'zaro hamkorligiga bog'liqdir.

O'quvchilarning internet savodxonligini shakllantirish – hozirgi texnologiya asrida ularni mustaqil, mas'uliyatli va ongli ishtirokchiga aylantirish yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Bu esa ta'lim muassasalarida innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlik asosida barqaror pedagogik muhitni yaratishni talab qiladi. Pedagoglar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik esa ushbu jarayonning muvaffaqiyatli kechishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1.Toxtaxodjaeva M. "Raqamli texnologiyalar asoslari". – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
- 2.Yuldashev O. "Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari". – Toshkent: TDPU, 2019.
- 3.UNESCO (2021). *Digital Literacy for Teachers and Students*. <https://unesdoc.unesco.org>
- 4.Gilster, P. (1997). *Digital Literacy*. Wiley & Sons.
- 5.Azizxo'jaeva N. N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
- 6.OECD (2020). *21st Century Skills and Competences for New Millennium Learners*. www.oecd.org
- 7.Buckingham, D. (2007). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. – Cambridge: Polity Press.